

Tarif rejasining nomi	Ovoz Plus
Oylik abonent to'lovi (so'm)	45 000
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi qo'ng'iroqlarning oylik limiti	3000
Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo'ng'iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	50 so'm
1 MB internet narxi	50 so'm
O'zbekiston bo'yicha chiquvchi SMS narxi	50 so'm
Xalqaro SMSlar	1 500 so'm

1. Mazkur tarif rejasi yangi ulanishlar va quyi tariflardan o'tishlar uchun ochiq.

2. Oylik abonent to'lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:

- Abonentning tarif rejasiga ulanish/o'tish sanasi oylik davrda oylik abonent to'lovining yechilish sanasi hisoblanadi.

- Tarif rejasiga yangi ulanishda/o'tishda, agar abonent hisobida yetarlicha mablag' bo'lsa, oylik abonent to'lovi va limitlar to'liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.

- Hisob manfiy holatda bo'lsa yoki unda tarif bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilishi uchun mablag' yetarli bo'lmasa, u holda abonent to'lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.

- Tarif rejasi doirasida navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi abonent o'tgan oyda hisobni to'ldirgan ayni o'sha kun va vaqtda amalga oshadi (agar abonent to'lovi 15-may soat 12:00 da yechilgan bo'lsa, unda navbatdagi abonent to'lovi keyingi oyning ayni o'sha kuni soat 12:00 da yechiladi). Oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag' bo'lishi kerak.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi (agar oylik abonent to'lovining yechilishi 31-sanada amalga oshgan bo'lsa, keyingi oy esa 30/29/28 kunlik bo'lsa, u holda navbatdagi oylik abonent to'lovi 30-sanada yoki fevral oyining 28/29-sanasida yechiladi. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi o'z vaqtida to'lansa (raqam uzluksiz Faol holatda bo'lib tursa), abonent to'lovining keyingi yechilish sanasi oyning 31-kuni bo'ladi).

- Agar oylik abonent to'lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to'lovi qiymatidan kam mablag' qolgan bo'lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lmaguncha abonent to'lovi yechilmaydi.

- Abonent hisobi abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirilishi bilan oylik abonent to'lovi darhol yechiladi. Abonent to'lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o'tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya'ni, tarif rejasi bo'yicha navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab bir oylik oraliqda amalga oshadi.

3. Bloklanish shartlari:

- Raqam musbat hisob holatida, agar tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi yechilishi paytida hisobda yetarlicha mablag' bo'lmasa, shuningdek manfiy hisob holatida, agar tegishli qo'shimcha xizmatlar ulangan bo'lsa bloklanadi;

- Bloklangan holatda tarif rejasini almashtirish imkoni bo'lmaydi;

Agar abonent hisobida boshqa ochiq tarif rejasining abonent to'lovini yechishga yetarli mablag' bo'lsa, tarif rejasini ruxsat etilgan barcha usullar orqali almashtirish mumkin.

- Bloklangan holatda abonent oldin xarid qilingan oylik internet-to'plamlar limitlarining qoldiqlaridan, toki ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa).
- Bloklangan holatda bo'lishning umumiy shartlari bilan bu yerda tanishish mumkin

4 Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Joriy oyda belgilangan oylik limitlarning qoldiqlari navbatdagi oyga ko'chirib o'tkazilmaydi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha limitlar belgilanganligini Ucell mobil ilovasi yoki *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.

- Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.

- Oylik limit to'liq sarflab tugatilganida, daqiqalardan foydalanish uchun abonent quyidagilardan birini qilishi lozim:

- Tarif bo'yicha limitlarni yangilash ("Restart" xizmatini faollashtirish);
- Tarif rejasini almashtirish

"1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish" opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

E'tibor qiling:

- Boshqa ochiq tarif rejalariga o'tishda oldingi tarif rejasiga ko'ra avval belgilangan limitlar bekor qilinadi.

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, tarif rejasi doirasidagi limitlardan foydalanishdan avval limitlar belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yoki Ucell mobil ilovasi yordamida albatta oldindan tekshirib olishni so'raymiz. Limitlar belgilanganigacha qadar narxlash tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari ko'rsatilgan narxlarda amalga oshiriladi.

5. Tarif rejasi shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar axborot-ko'ngilochar xizmatlariga va xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

6. Tarif rejalar shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar "O'zbektelekom" AKning axborot-ma'lumot xizmatlariga, kontent-provayderlarning axborot-ko'ngilochar xizmatlariga va xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

6.1 "O'zbektelekom" AK xizmatlari. Narxlash ushbu havoladagi jadvalda ko'rsatilgan narxlar asosida, har bir ulanish uchun amalga oshiriladi: https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom, (limitlar bo'lsa, limitlar sarflanmaydi. Tarif rejasi shartlariga muvofiq limitdan tashqari narx bo'yicha abonent balansidan yechiladi). Qo'ng'iroqning bir daqiqasi sizning tarif rejangizga muvofiq daqiqalab, ulanishning 1-soniyasidan boshlab, to'liq daqiqagacha yaxlitlanib narxlanadi. Abonentlar bu yerda tanishishlari mumkin https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom

7. Tarif rejalar doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

8. "Ovoz Plus" tarif rejasi abonentlari uchun "Yangi Oylik internet-to'plamlar", "Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari" (faqat "Cheksiz 30 kun" to'plami), "Tungi internet-to'plamlar", "Tunda 4Gni sinab ko'ring", "TAS-IX uchun internet-to'plamlar", "Internet MEGA BOOM" xizmatlari, "Al Chiroq" aksiyasi, "Trafik+", "Kunlik SMS-to'plamlar" xizmatlari amal qiladi.

9. "Ovoz Plus" tarif rejasi abonentlari uchun Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, "Qulay daqiqalar", "Tarmoq ichida qulay", "O'zbekiston bo'yicha qulay", "Oylik 4G internet-to'plamlar" (shuningdek, "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturi doirasidagi shu to'plamlar), "Raqamni saqlab qolish", "Tungi internet", "Buyurtma to'plam", "Soatbay internet" hamda "Maksimal internet", "Megabaytlar qaytadi" xizmatlari, "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturi hamda "U+" sodiqlik dasturi amal qilmaydi.

10. Tarif rejasi doirasida olingan limitlar tarif rejasini almashtirganda keyingi oyga ko'chirib o'tkazilmaydi.

11. Frod ulanishlarning oldini olish maqsadida, agar ulanishdan keyingi 30 kun davomida chiquvchi trafik 0 ga yaqin bo'lsa, Kompaniya abonent bilan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

"Restart" xizmatining shartlari:

1. "Restart" xizmati Ucell mobil ilovasi yoki *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.
2. "Restart" xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.
3. "Restart" xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. "Restart" xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.
4. "Restart" xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi oylik abonent to'lovi doirasida to'liq oylik limit belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi.
5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. "Restart" xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.
6. "Restart" xizmati samarali faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan limitlar qoldiqlari bekor qilinadi.
7. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida "Restart" xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.
8. "Restart" xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin.